

Hoja Ahrar weliniň Juma mesjidi

Category: Kitapcy,Taryhy ýerler
написано kitapcy | 23 января, 2025

Hoja Ahrar weliniň Juma mesjidi XOJA AHROR VALIY JOME' MASJIDI

Ma'lumki, ona tomondan Shayx Xovand Tahurning avlodi bo'lgan Xoja Ahror (1404-1490) o'zining yoshlik yillarini Toshkentda o'tkazgan. Keyinroq Samarqandda madrasa tahsildidan so'ng Toshkentga qaytib, ziroatchilik va savdo bilan ham mashg'ul bo'lgan. Xoja Ahror temuriy Sulton Abu Sa'id (1451-1469) davrida yana Samarqandga taklif qilinib, o'z hayotining ko'p qismini shu shaharda o'tkazgan bo'lsa-da, Toshkent madaniy-ma'naviy hayotida ham chuqur iz qoldirgan. Shu sababli Xoja Ahror nomi keyingi asrlarda ham Toshkent ma'naviy muhitida muhim o'rinn tutardi.

Toshkentdagi Xoja Ahror nomi bilan bog'liq ko'plab masjidlar haqida "Tarixiy jadidayi Toshkand" asarida kengroq ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular bizga ushbu masjidlarning XIX asrdagi qiyofasini tasvirlab beradi. Xoja Ahror jome' masjidi esa Toshkent masjidlari orasida alohida ajralib turgan va u shahardagi yirik hamda qadimiy me'moriy inshootlar sirasiga kirgan. Mazkur jome' masjid 1451 yilda qurdirilgan. Ko'p o'tmay, 1454 yilda uning yaqinida Xoja Ahror madrasasi ham bunyod qilingan . O'z vaqtida ushbu jome' va madrasaga Xoja Ahror tomonidan Toshkent viloyatida Kuzak, Nayman, Qorasuf yeri, Qorasufi kalon, Bulug'suf, Oqqa'rg'on, Xatnaylik, Hoji dorug'a, Qo'ng'roq, Qoraxitoy kabi yigirmaga yaqin qishloqlardagi mulklar vaqf qilingan edi .

Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Xoja Ahror jome' masjidi Chorsu bozori boshida, Boboi Obrez qabrining g'arbida joylashgan va u Ko'kaldosh hamda Xoja Ahror madrasalari, bozor do'konlari bilan tutash bo'lgan. Uning yonidan shahar ichidan oqib o'tuvchi uchta ariqdan biri – Shayxontahur arig'i oqib o'tgan .

“Tarixi jadidayi Toshkand” asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Xoja Ahror jome' masjidi binosining shimoliy va janubiy tarafida 22 ta ravoq va 22 ta gumbaz, janubi sharqida esa, 14 ta ravoq va 14 ta gumbaz hamda g'arb tarafi o'rtasida bir peshtoq, katta gumbaz va g'ishtli, burji naqshlangan mehrob, janubiy va janubi-sharqiy tomonida esa darvozalari bo'lgan. Toshkentdagi Xoja Ahror jome' masjidi (tarhi 91,0×35,6m, balandligi 20,0 m) kattaligi jihatidan Samarqandagi Bibixonim (tarhi 167/109m) va Buxorodagi Kalon masjididan (tarhi 126,5×81,4m) keyin O'zbekistonidagi eng katta jome' masjidlarning uchinchisi bo'lgan .

Turli davrlardagi tabiiy ofatlar, ayniqsa zilzilalardan zarar ko'rgan ushbu jome' masjid bir necha bor ta'mirlangan. Xususan, Qo'qon xoni Sheralixon (1842-1845) davrida Solihbek dodxohning shaxsiy mablag'i va Xoja Ahrorning vaqf yerlaridan tushgan mablag' hisobiga ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan . Masjidning gumbazi Toshkentda yuz bergen 1866 yildagi zilzilada ham qulab tushgan va qayta tiklangan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Shayxontahur ko'chasidan o'tuvchi Katta ko'chadagi imoratlar va bozorda, unga yaqin ko'chadagi do'konlar hamda Shayx Shibli arig'idan sharqdagi yerlar Xoja Ahror jome' masjidi va madrasasining vaqfi bo'lib, ularni Xoja Ahror avlodlaridan Musaxonto'ra Sayidxonto'ra boshqargan.

1884 yilda masjidning atrofi va bozor ichida 102 ta do'kondan yiliga 120 so'm, masjid yaqinidagi Solihbek dodxoh avlodlariga qarashli bir saroydan yiliga 120 so'm jami 240 so'm vaqf daromadi hisobiga faoliyat ko'rsatgan. Bu vaqtga kelib vaqf mulkclarini boshqarish Sayidxonto'raning boshqa bir o'g'li Mo'minxonto'ra qo'lida bo'lgan .

Xoja Ahror jome' masjidi 1885-1888 yillarda o'lka ma'muriyati tomonidan 13208 rubl mablag' sarflanib ta'mirlangan. Jome' masjidning 1888 yil 29 iyul juma kuni bo'lib o'tgan ochilish marosimida Turkiston general gubernatori N.O.Rozenbax (1884-1888), shahar qozilar - Muhiddinxo'ja qozi, Azizlarxo'ja qozi, Sharifxo'ja qozi, Xudoyorxonning Toshkentda istiqomat qilayotgan o'g'llaridan Sayyid Aminbek, Sayyid Umarbek, Shahrисабз va Kitob beklari Jo'rabbek va Bobobek hamda

boshqa taniqli kishilar ishtirok etgan. Masjidning ochilish marosimida Sebzor daha qozisi Muhiddinxo'ja Hakimxo'ja qozikalon o'g'li tantanali nutq so'zlab shaharliklarni qutlagan .

Xoja Ahror jome' masjidi 1917 – 1924 yillarda, shaharda kechgan siyosiy voqealar jarayonida ham tarix sahifasida qoldi. Xususan, 1917 yil 27 noyabrda Qo'qonda muxtoriyat e'lon qilingandan so'ng, 1917 yilning 6 dekabrida Xoja Ahror jome'sida muxtoriyatni olqishlab o'tkazilgan mitingda minglab toshkentliklar ishtirok etgan edi. Voqeа guvohlarining yozishicha, Saidg'ani Mahmud raisligida va mahalliy siyosiy arboblar – Munavvar Qori Abdurashidxonov, mulla Odil, Sherali Lapin ishtirokida o'tkazilgan ushbu mitingda 60 ming kishi qatnashgan, masjidning ichki sahni va tomi odamlar bilan to'lib ketgan .

Ko'kaldosh madrasasidan 40 metr shimoli-shraqda bo'lgan Xoja Ahror jome' masjidi binosi yaroqsiz holga tushib qolgani sababli 1954 yilda buzib tashlangan. Masjid O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 26 yanvaridagi farmoyishiga asosan qayta tiklangan va 1998 yil 16 iyulda ro'yxatdan o'tkazilib foydalanishga topshirilgan . Masjidning XX asr boshidagi qiyofasini esa faqat o'sha davr fotograflari olgan suratlarida ko'rishimiz mumkin .

Shu o'rinda shahardagi Xoja Ahrorning shahardagi boshqa masjidlar to'g'risida kengroq ma'lumot berish maqsadga muvofiqdır. Zero XIX asr Toshkent masjidlari haqida so'z ketganda, shahardagi Xoja Ahror nomi bilan bog'liq masjidlar haqida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Umuman olganda, Xoja Ahrorning Toshkent shahrida jome' masjididan tashqari yana bir mahalla masjidi ham bunyod qilgani haqida uning vafotidan oldinroq, 1490 yilda tuzilgan vaqfnomasida ham eslab o'tilgan . Afsuski vaqfnomada jome' va mahalla masjidi toshkentliklar orasida mashhurligi sababli ularning chegaralari ko'rsatilmagani ta'kidlangan. Shu sababli Xoja Ahror XV asr oxirida bunyod ettirgan mahalla masjidi shaharning qaysi qismida bo'lganini aniq aytish qiyin.

Albatta, bu kabi masjidlarning ayrimlarining buniyod bo'lishi aholi tomonidan Xoja Ahror va uning izdoshlari nomi bilan bog'liq deb tushunilgan yoki vaqf mulklari daxlsizligini ta'minlash maqsadida Xoja Ahror nomi bilan bog'lashga harakat qilingan bo'lishi ham mumkin. Ayrimlari Xoja Ahrorning vaqf yerlaridan kelgan daromad hisobiga buniyod etilgan bo'lishi ham mumkin. Lekin Xoja Ahrorning Toshkentda o'nlab masjidlar buniyod ettirgani ayni haqiqatdir. Xususan, birligina "Tarixiy jadidayi Toshkand" asarida shahardagi o'ndan ortiq masjid Xoja Ahrorga nisbat beriladi. Ularning 5 tasi Shayxontahur, 4 tasi Beshyog'och va 3 tasi Ko'kcha dahasida bo'lган. Bu haqda Muhammad Solihxo'ja shunday yozadi: "Va yana bu ruknda [Shayxontahur dahasi] beshta masjid Xoja Ahror valiynikidir. Ularning ikkisi Havzbog' mahallasida bir-biriga tutash bo'lib, devorlari pishiq g'ishtdan, shiftlari yog'ochdan. Ularning har birini alohida bittadan xonaqoh va ayvonlarga ega. Ustunlari ostiga marmar toshlar qo'yilgan.

Yana biri Bo'rqi Sarimast valiy [mozori] yaqinida, Xishtmasjid nomi bilan atalgan. U ham pishiq g'ishtdan bino qilingan, bir xonaqohi va ayvoni bo'lган. Yana bir masjid Sho'rtepa guzarida, u ham pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, xonaqoh va ayvondan iborat".

Bu dahadagi Xoja Ahror masjidlarining beshinchisi deganda, Muhammad Solihxo'ja yuqorida tilga olingan, dastlab Shayx Xovand Tahur tomonidan buniyod qilingan Oltinlik masjidini nazarda tutgan.

"Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Ko'kcha dahasidagi Langar, Charmgaron va Mahkama masjidlari ham Xoja Ahror masjididi sifatida tilga olingan (Mahkama masjidiga quyida alohida to'xtalib o'tamiz). Jumladan, Xoja Ahror Langar masjidiga o'z xalifalaridan birini tayin qilgan va masjid hovlisida uning qabri bo'lган. Charmgaron masjididi pishiq g'ishtdan, darvozaxonali bo'lib, minorasi toshdan qurilgan. Uning hujralarida talabalar istiqomat qilgan.

Beshyog'och dahasidagi Xoja Ahror masjidlaridan ikkitasi Samarqand darvoza ko'chasida, bir biriga yaqin masofada joylashgan. Yana bir masjid esa, Ko'kmasjid deb atalgan va

uning ustunlari tagkursisi marmar toshlardan qilingan . Ushbu masjid ayvon ustunlarining rangi ko'kimtir bo'lgani sabab keyinchalik u Ko'kmasjid nomi bilan mashhur bo'lgan. Hozirda masjid xonaqoh, unga tutashgan ayvon va darvozaxonadan iborat qismi saqlangan bo'lib, u XIX asr oxirida toshkentlik aka-uka Nodirmat va Hojimatboy mablag'iga qaytadan qurilgan. Masjid 1995-1999 yillarda ta'mirlanib atrofi obodonlashtirilgan .

"Tarixi jadidayi Toshkand" asari va arxiv hujjatlarida Chorsu bozori yaqinidagi Gulbozor masjidining buniyod bo'lishi ham Xoja Ahror nomi bilan bog'liq. "G" shaklida qurilgan Gulbozor masjidining taxminan XVI asrga mansubligi arxeologik tekshiruvlar natijasida ham aniqlangan. Mazkur masjidni tadqiq etgan A.F.Muhitdinov to'plagan ma'lumotlarga qaraganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida masjid maktab vazifasini ham bajargan. 1907 yilda masjid maktabida o'qigan Sh.Muzaffarovning masjid imomi bo'lgan o'z tog'asidan eshitganlariga qaraganda, uning qurilishi XV asrda yashab o'tgan Shayx Muxtor valiy nomi bilan bog'liq bo'lgan va u Xoja Ahror jome' masjididan ham oldin qurilgan ekan .

Masjid qurilishiga ko'ra, sodda lekin, katta gumbaz bilan yopilgan bo'lib, xonaqoh va ayvondan iborat. XX asrning 50-80 yillarida oshxona va turli artellarning omborxonasi bo'lgan ushbu masjid qurilish uslubiga ko'ra, Toshkent shahrining qadimiy masjidlaridan biri bo'lib, arxitektura yodgorligi sifatida davlat tomonidan muhofaza ostiga olingan. Masjid hozirda Chorsu bozori orqa tarafida joylashgan bo'lib, ta'mirlash va yon-atrofni obodonlashtirish zarur.

Yuqorida nomlari keltirilgan masjidlardan tashqari, 1868 va 1884 yilgi arxiv qaydnomalarida Toshkent shahridagi Balandmasjid, Mahsido'zlik, Parchabof, Pularig', Ko'nchilik, Xishtmasjid, Temirchilik mahallalaridagi masjidlarning buniyod bo'lishi ham Xoja Ahror faoliyati bilan bog'langan.

tarix.uz Taryhy ýerler